

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS

TA`LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fizika –matematika fakul`tetini “Fizika ” kafedrasini

bitiruvchisi Abdiy xamidova Soniya Jamshid qizining

**«O`rta maktabning 6-7sinflarida fizikadan nazorat ishlarini
nazorat etishda testlardan foydalanish metodikasi»**

5140200 - “fizika” ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr

darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: dots.I.I.Raxmatov

“ _____ ” _____ 2019 y.

BMI fizika kafedrasining 2019y. _____ № _____ sonli

yig`ilishidako`rib chiqildi va himoyaga ruxsat berildi.

Kafedra mudiri: Sh.Sh.Fayziev

“ _____ ” _____ 2019 y.

Taqrizchi: _____

“ _____ ” _____ .

“Himoya qilishga ruxsat berildi”

Fakul`tet dekani _____ M.I.Daminov

“ _____ ” _____ 2019 y.

	Kirish	3
I bob.	VI sinflar uchun fizika fanidan taqvim-mavzuviy ish rejalari va test savollari	10
1.1.	VI sinf uchun fizika fanidan taqvim-mavzuviy ish rejasi	10
1.2.	Nurlanish turmushda va texnikada issiqlik uzatilishidan foydalanosh mavzusidagi dars ishlanmasi:	14
1.3	VI sinf Fizika fani bo'yicha choraklar yakuni uchun test savollari.	17
II bob.	VII sinflar uchun fizika fanidan taqvim-mavzuviy ish rejalari va test savollari	34
2.1.	VII sinf uchun fizika fanidan taqvim-mavzuviy ish rejasi	34
2.2.	Jismlarning erkin tushishi mavzusidagi dars ishlanmasi	38
2.3.	VII sinf fizika fani bo'yicha choraklar yakuni uchun test savollari.	40
	Xulosa...	58
	Foydalanilgan adabiyotlar	59

Bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarishni talab qiladi, zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin.

Shavkat Mirziyoyev.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin yuzaga kelgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi va ular ta'lim jarayoniga joriy etila boshlangandan so'ng tizimda foydalanilayotgan o'quv adabiyotlari mazmunini isloh qilish, ularni mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollariidan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Bu o'z navbatida, ta'lim tizimi tamomila yangi mazmun kasb etayotgan ayni vaqtda, o'quv adabiyotlari mazmunini qayta tahlildan o'tkazish, shular asosida yangi avlod darsliklarini yaratish, ta'lim bosqichlari bo'yicha uning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash va hayot bilan bog'lash lozimligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi xalq ta'limi muassasalarining oldiga-yangi demokratik davlatning fuqarolarini shakllantirishdek muhim vazifani qo'ydi . Bu esa hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtlarida davr talabiga javob beradigan yosh mutaxassislarni faqat nazariy bilimlarni chukur o'rgangan holda emas balki ayni vaqtda buyuk insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, muomalaga kirisha oladigan, o'z ishini puxta egallagan mohir mutaxassislar etib tayyorlashga katta e'tibor qilishni talab etadi. Ayniqsa, hozirgi davrning bu talabi bo'lajak o'qituvchilarni yuksak pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat ko'nikmalari bilan qurollangan, madaniyatli shaxs sifatida tayyorlash kerakligini yana bir bor ta'kidlab bermoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichida turgan jamiyatimiz hozirgi kunda o'rta ta'lim maktablarining faoliyatini takomillashtirish yo'lida pedagogik oliy o'quv yurtlari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, maktablarga malakali kadrlarni tayyorlashni yanada yaxshilash muammosini qo'ymokda.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy ta'lim konsepsiyalariga asoslanib, davr talablariga mos dastur, darsliklar tuzilganligi; o'quvchilar o'zlashtirishini jahon andozalariga mo'ljallab DTSlar ishlab chiqilib, joriy qilinganligi bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

Bu shubhasiz, ta'lim jarayonida o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishning imkoniyatlarini oshirdi. Pedagogik nazariya zamonaviy g'oyalar bilan boyitilib, pedagogik amaliyot yanada takomillashtirilmoqda. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida umumiy ta'lim fanlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishilgandan keyin bu sohadagi ishlarni aniq bir tizimga solish, qo'llab-quvvatlash, yangiliklarni joriy etishga yetarli shart-sharoitlar yaratadigan tuzilmalarga bo'lgan ehtiyoj yaqqol ko'zga tashlandi.

Har qanday fan insonning tadqiqot faoliyati bilan aloqador bo'lib, u narsa va hodisalar to'g'risida bilimlar to'plashga yo'nalgan, hamda tadqiqot qilinayotgan narsa hodisalar to'g'risida to'liq va chuqur bilim olishga qaratilgan. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Hozirgi kunda ta'limni sifat va samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalari va bilimlarni nazorat qilishning test sinovlaridan foydalanishning o'rni beqiyosdir. Ta'lim jarayonini tashkil etishda va o'quvchilarga bilim berishda o'qituvchining

innovatsion faoliyati va zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati to'g'risida so'z yuritish ekanmiz ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish diqqatimiz markazida bo'lishini nazarda tutishimiz kerak.

Jahon tajribasidan ma'lumki, ta'lim jarayoniga o'qitishning yangi, zamonaviy usul va vositalari kirib kelmoqda va samarali foydalanilmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimining deyarli barcha bosqichlarida, ayniqsa umumta'lim maktablarida, akademik, litsey va kasb hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarida ham bilimlarni nazorat qilishning test sinovlaridan, innovatsion va zamonaviy pedagogik g'oyalar amalga oshirilmoqda: o'qituvchi bilim olishning yagona manbai bo'lib qolishi kerak emas, balki o'quvchilar mustaqil ishlash jarayonining tashkilotchisi, maslahatchisi, o'quv jarayonining boshqaruvchisi, ya'ni, menejeri bo'lishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi: har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Mustaqillikni mustahkamlashning strategik yo'lida og'ishmay davom etayotgan va iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'lga kirib borayotgan mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish, unga rivojlangan mamlakatlarning ilg'or texnologiyalarini joriy qilish, milliy qadriyatlarimizni singdirgan holda ta'limni tashkil etish, bu jarayonni puxta va samarali amalga oshirish ishlari bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini va test ruzumini isloh qilishning tashkiliy, ilmiy va metodik asoslari yaratildi, asosiy maqsad esa komil inson va yetuk malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, deb belgilandi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosiy tarkibiy qismlarini shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish tashkil etib, ular o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Mazkur hujjat talablarini amalga oshirish esa ta'lim tizimini tubdan qayta qurishni, ya'ni xalq ta'limi taraqqiyotining konseptual qoidalarini qayta ko'rib chiqishni va uni qisqa vaqt ichida ijobiy hal qilishni taqozo etadi. Bu vazifalarning hal etilishi jahon ilmiy jamg'armasidagi juda katta hajmli axborot fondidan nimani ajratib olish, qancha va qanday o'qitish masalalarining

yechimi bilan bevosita bog'liqdir. Ana shu kesimda ta'lim texnologiyalarini joriy etish bilan aloqador zamonaviy muammolar oydinlashadi. Qolaversa, ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada kengroq davom ettirishni davr taqozo etmoqda.

Hozirgi paytda aksariyat metodist va pedagog-olimlar pedagogik texnologiyalar o'quvchi yoki talabalarga ta'lim-tarbiya berishda ko'zlangan maqsadga erishishni to'la kafolatlaydi, deb qarashmoqda. Lekin bunday fikrlarni ob'ektiv haqiqat o'rnida qabul qilib bo'lmaydi, chunki bunda ob'ekt shaxs bo'lib, uning ongi taklif qilinayotgan texnologiyani to'laligicha qabul qila olmaydi, aksincha, uni inkor qilishi ham mumkin.

Shuning uchun, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga kiritishda uning boshqaruvchisi bo'lgan o'qituvchigina ko'zlangan maqsadga erishishning bosh kafolatchisi bo'ladi. Agar shu nuqtai nazardan kelib chiqib qaraydigan bo'lsak, yangi pedagogik texnologiyalar va uning asosiy negizi bo'lgan axborot-kommunikatsiya(AKT) texnologiyasini bilimlarni nazorat qilishning test sinovlarimi ta'lim tizimiga yanada keng joriy etishda uning boshqaruvchisi bo'lmish o'qituvchining tayyorgarlik darajasini birinchi o'ringa qo'yish lozim. Shu sababli pedagog o'qituvchi yangi bilimlarning asosiy manbai bo'lib qolmasdan, u birinchi navbatda o'quvchilar bilish faoliyatining tashkil etuvchisi bo'lib, o'quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi formalarini topib, o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishi, boshqarishi va rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishishini ta'minlashi lozim.

Zamonaviy texnologiyalar jadal tarzda rivojlanayotgan bu davrda o'quvchilarning bilim olish qobiliyatlarini o'stirish, ularning sifatli ta'lim olish huquqlarini himoya qilish, iqtidorli va iste'dodli yoshlar bilan ishlashni takomillashtirish ta'lim sohasidagi islohotlarning bosh vazifasiga aylandi.

Respublikamizda bilimli, intellektual salohiyatli va jahon andozalariga mos raqobatbardosh yoshlarni tayyorlashda fizika fanining o'rni kata.

Bu esa bo'lg'usi fizika o'quvchilarining metodik tayyorgarligini shakllantirishda yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanishni, bilimlarni nazorat qilishning test sinovlaridan ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish, ularni zamonaviy pedagogik faoliyatga tayyorlashni ustuvor maqsad qilib belgilashni talab etadi.

Shu sababdan yangi pedagogik texnologiyalar sharoitida maktab fizikasini o'qitishda zamonaviy pedagogik faoliyatni tashkillashtirish fizika o'qituvchisining metodik tayyorgarligining tarkibiy qismlariga muayyan o'zgartirishlar kiritish, uning mazmunini yangilash, fizikani o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan bilan birga bilimlarni nazorat qilishning test sinovlaridan foydalanish yo'llarini ishlab chiqish lozim.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi –o'rta umumta'lim maktablarida 6-7 siflarda fizika fanini o'qitishda bilimlarni choraklarda yakuniy nazorat qilishda test sinovlaridan foydalanishni tashkil qilish va takomillashtirilgan yangi pedagogik texnologiyalarni taklif etish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- Maktab fizika kursini yangi DTS va dasturini tahlil qilib o'rganish.
- O'rta umumta'lim maktablari fizika darslarida yakuniy nazoratlarda qo'llaniladigan yangi test savollarini tuzish va tahlil qilish.
- Maktabda qo'llaniladigan noan'anaviy texnologiyalarni tahlil qilish.
- 6-7 siflarda fizika fanini o'qitishda bilimlarni choraklarda yakuniy nazorat qilishda test sinovlarini qo'llash bo'yicha tavsiyalarni adabiyotlar va internet materiallaridan o'rganib tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi – Bitiruv malakaviy ishi ilmiy, amaliy manbalar asosida bajarildi. O'rta umumta'lim maktablarida 6-7 siflarda fizika fanini o'qitishda bilimlarni choraklarda yakuniy nazorat qilishda test sinovlaridan foydalanishni, dolzarbligi va muhim xususiyatlari o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti – O'rta umumta'lim maktablarining 6-7 siflarda fizika fanini o'qitishda bilimlarni choraklarda yakuniy nazorat qilishda test sinovlaridan foydalanish bo'yicha yaratilgan qo'llanmalar, ilmiy

ishlar, maqolalar, sinf dars sistemasi, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar bo'lib hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti – tadqiqot ob'ekti bo'lib, umumta'lim maktablaridagi ta'lim jarayonlari, fizika laboratoriyalari, fizika fanida test savollarudan foydalanishdan va yangi pedagogik texnologiyalardan qo'llanma va darsliklar.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy farazi – Davlat ta'lim standartlari talablari darajasida umumta'lim maktablari 6-7 siflarida fizika fanini o'qitishda bilimlarni choraklarda yakuniy nazorat qilishda test sinovlaridan foydalanish, va yangi pedagogik texnologiyalardan, usullardan, prinsiplardan foydalanib dars samaradorligini oshirish uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi –Fizika fani bo'yicha yangi pedagogik texnologiyalarni ilmiy jihatdan tahlil qilib chiqib, 6-7 sinf o'quvchilar o'rganishi uchun qulay bo'lgan yangi 400 ta test savollarini tuzib tayyorlanganligi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati – Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, har bir umumta'lim maktabining 6-7 sinflarida fizika fanini o'qitish jarayonida yakuniy nazoratlarni choraklar boyicha o'tkazishda ikki variantda 25 tadan savoli bor test savollaridan foydalanish metodi ishlab chiqildi hamda o'quvchilarning bilim olish darajasi yanada oshganligi, shuningdek, bu texnologiyalar yordamida o'quvchi hamda o'qituvchi o'zi mustaqil ravishda kerakli yo'nalish bo'yicha mustaqil tayyorlanishiga imkoniyat yaratiladi.. Ular o'zini mashqlar, testlar asosida sinab ko'radi

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi – bitiruv malakaviy ishi mavzusi bilan bog'liq bo'lgan ilmiy-uslubiy adabiyotlarni, dastur, darslik, o'quv hamda uslubiy qo'llanmalarni o'rganish, yangi testlar tuzish namunaviy fizika darslarini o'rganish va ularni tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari – bitiruv malakaviy ishining mavzusi bilan bog'liq adabiyotlarni o'rganish, internet materiallarini o'rganish, shuningdek, fizika fani o'qituvchilarning ish tajribalarini kuzatish, o'qituvchi va o'quvchi bilan

suhbat o'tkazish, ularning tajribasini umumlashtirish; 6-7 sinflarda test sinovlarini tashkil qilish va tajriba natijalarini qayta ishlash.

Malakaviy bitiruv ishining tarkibi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi 60 betda bayon etilgan bo'lib: kirish, 2 ta bob, xulosa 22 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar va 8 nomdagi internet saytlari ro'yxatidan tashkil topgan.

I bob . VI sinflar uchun fizika fanidan taqvim-mavzuviy ish rejalari va test savollari

1.1. VI sinf uchun fizika fanidan taqvim-mavzuviy ish rejasi

(68 soat / haftasiga 2 soatdan)

1.1.1-jadval

№	Mavzular	Soat	Taqvim vaqt	O‘tilgan vaqt	Uyga vazifa	Ko‘rgaz-malar	Sahifa	Izoh
I CHORAK – 18 SOAT								
Kirish								
1-dars	Fizika nimani o‘rganadi? Fizik hodisalar. Fizika taraqqiyoti tarixidan ma’lumotlar	1						
2-dars	Jamiyat rivojlanishida fizikaning ahamiyati. O‘zbekistonda fizika taraqqiyoti.	1						
3-dars	Fizikda ishlatiladigan ayrim atamalar Kuzatish va tajribalar.	1						
4-dars	Fizik kattaliklar va ularni o‘lchash. O‘lchashlar va o‘lchash aniqligi	1						
I bob. Modda tuzilishi haqida dastlabki ma’lumotlar								
5-dars	Modda tuzilishi haqida Demokrit, Ar-Roziy, Beruniy va ibn Sino ta’lumotlari	1						
6-dars	Molekulalar va ularning o‘lchamlari	1						
7-dars	Molekularning o‘zaro ta’siri va harakati. Broun harakati	1						
8-dars	Turli muhitlarda diffuziya hodisasi	1						
9-dars	Qattiq jism, suyuqlik va gazlarning molekulyar tuzilishi. Laboratoriya ishi: Suyuqliklarda diffuziya hodisasini o‘rganish (uyda bajariladi)	1						
10-dars	1-NAZORAT ISHI	1						

11-dars	Massa va uning birliklari	1						
12-dars	Laboratoriya ishi: Tarozi yordamida jismlarning va moddalarning massasini o'lchash	1						
13-dars	Zichlik va uning birliklari. Beruniy va Xozinning zichlikni aniqlash usullari.	1						
14-dars	Laboratoriya ishi: Qattiq jismning zichligini aniqlash.	1						
II bob. Mexanik hodisalar								
15-dars	Jismlarning mexanik harakati. Trayektoriya. Jismlarning bosib o'tgan yo'li va harakat vaqti.	1						
16-dars	Tekis va notekis harakat haqida tushuncha. Tezlik va uning birliklari	1						
17-dars	2-NAZORAT ISHI	1						
18-dars	Masalalar yechish	1						
II CHORAK – 14 SOAT								
19-dars	Jismlarning o'zaro ta'siri haqida ma'lumotlar. Kuch	1						
20-dars	Laboratoriya ishi: Dinamometr yordamida kuchlarni o'lchash	1						
21-dars	Bosim va uning birliklari. Masalalar yechish	1						
22-dars	Paskal qonuni va uning qo'llanilishi. Hidravlik press	1						
23-dars	Tinch holatdagi gaz va suyuqlikda bosim	1						
24-dars	Masalalar yechish	1						
25-dars	3-NAZORAT ISHI	1						
26-dars	Atmosfera bosimi. Torrichelli tajribasi	1						
27-dars	Arximed qonuni va uning qo'llanilishi	1						
28-dars	Ish va energiya haqida tushuncha	1						

29-dars	Energiya turlari. Quvvat	1						
III bob. Jismlarning muvozanati. Oddiy mexanizmlar								
30-dars	Jismlarning massa markazi va uni aniqlash. Muvozanat turlari	1						
31-dars	4-NAZORAT ISHI	1						
32-dars	Kuch momenti. Richag va uning muvozanat sharti	1						
III CHORAK – 20 SOAT								
33-dars	Laboratoriya ishi. Richagning muvozanatda bo'lish shartini o'rganish	1						
34-dars	Oddiy mexanizmlar: blok, qiya tekislik, vint, pona chig'irining qo'llanilishi	1						
35-dars	Mexanizmlardan foydalanishda ishlarning tengligi	1						
36-dars	Mexanikaning oltin qoidasi. Mexanizmning foydali ish koeffitsienti	1						
IV bob. Issiqlik hodisalari haqida dastlabki ma'lumotlar								
37-dars	Issiqlikni hosil qiluvchi manbalar. Issiqlik qabul qilish	1						
38-dars	Jismlarning issiqlikdan kengayishi	1						
39-dars	Qattiq jism, suyuqlik va gazlarda issiqlik uzatilishi. Issiqlik o'tkazuvchanlik. Konveksiya	1						
40-dars	Nurlanish. Turmushda va texnikada issiqlik uzatilishidan foydalanish	1						
41-dars	5-NAZORAT ISHI	1						
42-dars	Issiqlik hodisalari haqida Forobiy, Beruniy va Ibn Sino fikrlari	1						

43-dars	Temperatura. Termometrlar. Jismning temperaturasini o'lchash	1						
44-dars	Laboratoriya ishi. Termometr yordamida havo va suyuqlik temperaturacini o'lchash	1						
V bob. Elektr hodisalari haqida dastlabki ma'lumotlar								
45-dars	Jismlarning elektrlanishi	1						
46-dars	Elektr toki haqida tushuncha. Tok manbalari	1						
47-dars	Turmushda elektr tokining ahamiyati. Oddiy elektr zanjiri	1						
48-dars	Xonadondagi elektr asboblari. Elektr energiyasini tejash	1						
VI bob. Yorug'lik haqida dastlabki ma'lumotlar								
49-dars	Yorug'likning tabiiy va sun'iy manbalari	1						
50-dars	6-NAZORAT ISHI	1						
51-dars	Yorug'likning to'g'ri chiziq bo'ylab tarqalishi. Soya va yarim soya	1						
52-dars	Quyosh va Oy tutilishi	1						
IV CHORAK – 16 SOAT								
53-dars	Yorug'likning tezligi. Yorug'likning qaytishi va sinishi	1						
54-dars	Yorug'lik hodisalari haqida Beruniy va ibn Sinoning fikrlari	1						
55-dars	Yassi ko'zgu	1						
56-dars	Linzalar haqida tushuncha	1						
57-dars	Shisha prizmada yorug'likning tarkibiy qismlarga ajralishi. Kamalak	1						

58-dars	Laboratoriya ishi. Yassi ko'zgu yordamida yorug'likning qaytishini o'rganish	1						
59-dars	Shisha prizma yordamida yorug'likning spektrga ajralishini o'rganish	1						
60-dars	7-NAZORAT ISHI	1						
VII bob. Tovush hodisalari haqida dastlabki ma'lumotlar								
61-dars	Tovush manbalari va uni qabul qilgichlar	1						
62-dars	Tovushning turli muhitlarda tarqalishi	1						
63-dars	Tovush kattaliklari	1						
64-dars	Tovushning qaytishi. Aks sado	1						
65-dars	Musiqiy tovushlar va shovqinlar. Tovush va salomatlik. Me'morchilikda tovush	1						
66-dars	Takrorlash	1						
67-dars	8-NAZORAT ISHI	1						
68-dars	Ekskursiya	1						

**1.2. Nurlanish turmushda va texnikada issiqlik uzatilishidan foydalanosh
mavzusidagi dars ishlanmasi:**

39-dars Sana: 6-sinf

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: - nurlanish, issiqlik uzatilishining bir turi sifatida ekanligini tushuntirish; - issiqlik uzatilishi hodisasidan turmushda va texnikada foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish.

Tarbiyaviy: Fizika faniga qiziqishini yanada oshirish.

Rivojlantiruvchi: Mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

DTS talabi: Nurlanish. Turmushda va texnikada issiqlik uzatilishidan foydalanishni bilishi.

Dars turi: Yangi bilim berish

Dars usullar: Suhbat, demonstratsion.

Dars materiallari: 1. Fizika darsligi va multimediya darslik. Kompyuter. CD disk.

2. Plakatlar. Termos, radiator. 3. Doska, bo'r.

Darsning borishi:

1. Tashkiliy qism.

O'quvchilarga Forobiy, Ar-Roziy, Beruniy, Ibn-Sino, issiqlik uzatish, issiqlik o'tkazuvchanlik, konveksiya yozilgan kartochkalar tarqatiladi va shu yozuvni topib birlashish taklif etiladi. O'quvchilar o'z taqdimotlarida o'tgan mavzu haqida fikr bildiradilar.

2. O'tgan mavzuni so'rash Bu mavzu oldingi mavzuning uzviy davomi bo'lganligidan o'tilganlarni takrorlashga alohida e'tibor berish kerak. Buning uchun qisqa javobli savollar tashlanib, ko'p o'quvchilardan og'zaki javoblar olinishiga erishiladi. Lekin savollarga "ha" yoki "yo'q" deb javob berilmagani ma'qul.

Savol namunalari: 1. Nima uchun qizdirilgan detallar suvga tushirilsa, havoga qaraganda tezroq soviydi?

2. Kumush va chinni piyolalarga choy quyildi. Qaysi birida choy tez soviydi?

3. Qishda odamning oyog'i katta poyafzal kiysa sovqotadimi yoki kichik poyafzal kiysami?

4. Qora tuproqli yer Quyosh nurlarida yaxshi qiziydimi yoki oqish kul rang tuproqmi?

3. Yangi mavzuning bayoni.

Shunday qilib, konveksiya ham, issiqlik o'tkazuvchanlik ham zarrachalar harakati bilan amalga oshiriladi. Unda Yerdagi energiyaning asosiy sababchisi bo'lgan Quyoshdan issiqlik Yerga qanday uzatiladi? Axir, Yer va Quyosh orasida

zarrachalar deyarli yo'q bo'lgan muhit - vcikum mavjudku! Bu holatda issiqlik nurlanish orqali uzatiladi. Quyoshdan kelayotgan yorug'lik oqimi o'zi bilan birga issiqlik energiyasini ham olib keladi. Cho'g'lanma elektr lampochkasi ham yorug'lik bilan birga issiqlikni nurlantiradi. Lampochka ichida havo bo'lmasa-da, lampochkadan nurlangan issiqlikni kaftimiz bilan sezishimiz mumkin. Nurlanish orqali olingan energiya isitiluvchi yuza rangiga bog'liq. Qishda qor ustiga bir xil materialdan qilingan bir xil yuzali, biri oq, ikkinchisi qora rangga bo'yalgan mato yoyib qo'yilsa, qora mato tagida qor ko'proq eriganligini ko'ramiz. Demak, yuzaga tushgan nurlanish energiyasi unga yutilishi yoki undan qaytishi mumkin ekan. Deraza oynalari Quyoshdan keluvchi nurlanishni yaxshi o'tkazadi, lekin uydagi radiatordan chiqqan issiqlikni yomon o'tkazadi. Issiqxona («teplitsa») lardagi oynali devor va shiplarning vazifasi sizga endi tushunarli bo'lsa kerak!

Konveksiya, issiqlik o'tkazuvchanlik va nurlanish hodisalaridan turmushda va texnikada keng foydalaniladi.

Uyda ovqat pishirish va choy qaynatish uchun ishlatiladigan qozon va chovgumlarni issiqlikni yaxshi o'tkazuvchi materiallardan yasaladi. Lekin qaynagan choyni uzoqroq issiq holatda ushlab turish uchun chinni choynakka damlagan ma'qul bo'ladi. Choyni stakanda ichsak, og'iz kuyib qoladi. Lekin chinni piyolada ichsangiz kuymaydi. Nima sababdan?

Nurlanish energiyasidan foydalanishda ham materiallarga va uning rangiga e'tibor beriladi. Yozda issiqlik nurlarini yaxshi qaytaradigan oq rangdagi liboslar kiyilsa, qishda to'q rangdagilari kiyiladi.

4.Darsni mustahkamlash..

1. Xonada vakuum hosil qilinsa, uni qanday usul bilan isitish mumkin?
2. Issiq xonada muzni mo'ynaga o'rab qo'yilsa, uning erishi tezlashadimi?

5.O'quvchilarni baholash. O'quvchilar darsdagi ishtirokiga qarab baholanadi.

6.Uyga topshiriq. Savollarga javob yozib kelish

1.3.VI sinf Fizika fani bo'yicha choraklar yakuni uchun test savollari.

I variant

1.Fizika so'zi ilk bor qaysi olimning asarlarida paydo bo'ldi?

A) M.V.Lomonosov; B) Aristotel; C) Nyuton; D) Arximed;

2.Moddalar qanday tuzilgan?

A) Moddalarning tuzilishi ularning holatiga bog'liq; B) Moddalar juda mayda zarralardan tuzilgan; C) Moddalar asosan yaxlit holatda uchraydi; D) Moddalarning tuzilishi ularning holatiga bog'liq;

3. Jismlarning vaqt o'tishi bilan fazoda joylashgan o'rnining boshqa jismlarga nisbatan o'tishga nima deyiladi?

A) Diffuziya; B) Mexanik hodisalar; C) Trayektoriya; D) T,J.Y;

4.Broun harakati nima?

A) Molekulalarning harakati; B) Qizigan havo molekulalarining yer sirtidan ko'tarilishi; C) Atmosferada issiq va sovuq havo oqimlarining paydo bo'lishi; D) Molekulalarning tartibsiz va to'xtovsiz harakati;

5.Modda xususiy hajmga ega lekin shaklga ega emas, u qanday holat?

A) Gaz; B) Suyuq; C) Qattiq; D) Har uchala holatda ham;

6.Bir xil haroratdagi qaysi jismlarda diffuziya tezroq boradi?

A) Qattiq jismlarda; B) Gazlarda; C) Suyuqliklarda; D) Gaz va suyuqlikda;

7.Jimlarning fazoda qoldiragan izi ... deyiladi.

A) Trayektoriya; B) Masofa; C) Tezligi; D) Ko'chish;

8.Inson terisi orqali organizmga havodagi kislorod qanday hodisa tufayli kiradi?

A) Diffuziya; B) Broun harakati; C) Bug'lanish; D) Harakat;

9.Molekulalarning diametri qanday formula bilan aniqlanadi?

A) $S=d*b$; B) $d=V/S$; C) $d=S*b$; D) $V=d*S$;

10.Modda xususiy shaklga va hajmga ega emas,bu qanday holat?

A) Suyuq; B) Gaz; C) Qattiq; D) Har uchalasi ham;

11.Modda tuzulishi haqidagi dastlabki tushunchalar kimga tegishli?

A) Demokrit; B) Arximed; C) Aristotel; D) Ibn Sino;

12. Xalqaro birliklar sistemasi nechanchi yilda qabul qilingan va unda nechta asosiy fizik kattaliklar bor?

A) 1973-yil-7ta; B) 1973-yil-6ta; C) 1973-yil-8ta; D)1963-yil-7ta;

13.Modda xossasi saqlanib qoladigan eng kichik zarrachaga...

A) Molekula; B) Atom; C) Proton; D) Ion;

14. Fizika so'zining ma'nosi....

A) yorug'lik; B) Tabiatshunoslik; C) Atom; D) TJY;

15. O'lchanadigan kattalikni namunaviy kattalik bilan solishtirish nima deyiladi?

A) Uzunlik; B) O'lchash; C) Massa; D) Kuzatish;

16. Xususiy shaklga va hajmga ega...

A) Suyuqlik; B) Qattiq jism; C) Gazlar; D) Molekulalar

17. Qattiq jism molekulalari (atomlari) qanday harakatda bo'ladi?

A) Tartibsiz; B) Aylanma; C) Tebranma; D) Harakat qilmaydi;

18 Jismning harakati trayektoriyasi uzunligi deyiladi.

A) yo'l; B) tezlik; C) vaqt; D) barcha javoblar to'g'ri;

19. Diffuziya so'zining ma'nosi bu-.....

A) Bo'linmas; B) tarqalish, sochilish; C) Massa; D) Tabiat;

20. Bir modda molekulaning ikkinchi modda molekulalariga o'zaro o'tishigadeyiladi.

A) difuziya; B) harakat; C) harorat; D) T.J.Y;

21. Moddalarning tabiatda necha xil holatda uchraydi? Qaysilar ?

A) 2 xil: Suyuqliklar, qattiq jismlar; B) 1 xil: Qattiq jismlar; C) 3 xil: gazlar, suyuqliklar, qattiq jismlar; D) TJY;

22. Diffuziya hodisasini o'rganish suyuqliklarda laboratoriyalarda ishida keraklik asboblari qaysilar?

A) issiq va sovuq suv; B) ikkita stakan; C) margansofka kristallari; D) a,b,c javoblar to'g'ri;

23. Tabiatda uchraydigan barcha jisimlarga deyiladi.

A) tezlik; B) fizik qonun; C) fizik jismlar; D) Jismlar sistemasi;

24. Vodorod atomining o'lchami nimaga teng?

A) 0,07mm; B) 0.0000023mm; C) 0,00000012mm; D) T.J.Y;

25. Molekulalar harakatini birinchi bo'lib qaysi olim kuzatgan?

A) Xorazmiy; B) Robert Braun; C) Beruniny; D) Aristotel;

1-chorak 1 variant javoblari

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
D	B	B	D	B	B	A	B	D	B	B	D	A
14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	
B	B	B	C	A	B	A	C	D	D	C	B	

2- variant**6-sinf Fizika fani bo'yicha I chorak yakuni uchun test**

1. Jismlarning vaqt o'tishi bilan fazoda joylashgan o'rnining boshqa jismlarga nisbatan o'tishga nima deyiladi?

A) Diffuziya; B) Mexanik hodisalar; C) trayektoriya; D) TJY;

2. Modda xususiy shaklga va hajmga ega emas, bu qanday holat?

A) Suyuq; B) Qattiq; C) Gaz; D) Har uchala holatda ham;

3. Qattiq jism molekulalari (atomlari) qanday harakatda bo'ladi?

A) Tartibsiz; B) Aylanma; C) Tebranma; D) Harakat qilmaydi;

4. Fizika so'zi ilk bor qaysi olimning asarlarida paydo bo'ldi?

A) M.V. Lomonosov; B) Aristotel; C) Nyuton; D) Arximed;

5. Moddalar qanday tuzilgan?

A) Moddalarning tuzilishi ularning holatiga bog'liq; B) Moddalar juda mayda zarralardan tuzilgan; C) Moddalar asosan yaxlit holatda uchraydi;

D) Moddalarning tuzilishi ularning holatiga bog'liq

6. Jimlarning fazoda qoldiragan izi ... deyiladi.

A) trayektoriya; B) masofa; C) tezligi; D) ko'chish;

7. Jismning harakati trayektoriyasi uzunligi ... deyiladi

A) yo'l; B) tezlik; C) vaqt; D) barcha javoblar to'g'ri;

9. Xalqaro birliklar sistemasi nechanchi yilda qabul qilingan va unda nechta asosiy fizik kattaliklar bor?

A) 1973-yil-7ta; B) 1973-yil-6ta; C) 1973-yil-8ta; D) 1963-yil-7ta;

10. Modda xossasi saqlanib qoladigan eng kichik zarrachaga...

A) Molekula; B) Atom; C) Proton; D) Ion;

11. Fizika so'zining ma'nosi....

A) yorug'lik; B) Tabiatshunoslik; C) Atom; D) TJY;

12. O'lchanadigan kattalikni namunaviy kattalik bilan solishtirish nima deyiladi?

A) Uzunlik; B) O'lchash; C) Massa; D) Kuzatish;

13. Xususiy shaklga va hajmga ega...

A) Suyuqlik; B) Qattiq jism; C) Gazlar; D) Molekulalar;

14. Broun harakati nima?

A) Molekulalarning harakati; B) Qizigan havo molekulalarining yer sirtidan ko'tarilishi; C) Atmosferada issiq va sovuq havo oqimlarining paydo bo'lishi; D) Molekulalarning tartibsiz va to'xtovsiz harakati;

15. Modda xususiy hajmga ega lekin shaklga ega emas, u qanday holat?

A) Gaz; B) Suyuq; C) Qattiq; D) Har uchala holatda ham;

16. Bir xil haroratdagi qaysi jismlarda diffuziya tezroq boradi?

A) Qattiq jismlarda; B) Gazlarda; C) Suyuqliklarda; D) Gaz va suyuqlikda

17. Diffuziya so'zining ma'nosi bu-

- A) Bo'linmas; B) tarqalish, sochilish; C) Massa; D) Tabiat;

18. Bir modda molekulaning ikkinchi modda molekulalariga o'zaro o'tishiga nima deyiladi?

- A) diffuziya; B) harakat; C) harorat; D) TJY;

19. Moddalarning tabiatda necha xil holatda uchraydi? Qaysilar?

- A) 2 xil: Suyuqliklar, qattiq jismlar; B) 1 xil: Qattiq jismlar; C) 3 xil: gazlar, suyuqliklar, qattiq jismlar; D) TJY;

20. Diffuziya hodisasini o'rganish suyuqliklarda laboratoriyalarda ishida keraklik asboblari qaysilar?

- A) issiq va sovuq suv; B) ikkita stakan; C) margansofka kristallari; D) a, b, c javoblari to'g'ri

21. Tabiatda uchraydigan barcha jismlarga deyiladi

- A) tezlik; B) fizik qonun; C) fizik jismlar; D) Jismlar sistemasi;

22. Vodorot atomining o'lchami nimaga teng

- A) 0,07mm; B) 0.0000023mm; C) 0,00000012mm; D) TJY;

23. Molekulalar harakatini birinchi bo'lib kuzatgan olim qaysi edi?

- A) Xarazmiy; B) Robert Braun; C) Beruniny; D) Aristotel;

24. Suv molekulasida nechta kislorod atomi bor?

- A) 1 ta; B) 2 ta; C) 3 ta; D) 4 ta;

25. Trayektoriya uzunligi jism o'lchamlaridan juda katta bo'lgan hollarda jismni nima deb ataymiz?

- A) Trayektoriya; B) Yo'l; C) Moddiy nuqta; D) Sanoq jismi;

1-chorak 2-variant javoblari

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
B	C	C	B	B	A	A	C	D	A	B	B	B
14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	
D	B	B	B	A	C	D	D	C	B	A	C	

6- sinf fizika fanidan 2-chorak yakuni uchun test. 1-variant

1. Moddaning inertlik va tortishish xossasini ifodalovchi fizik kattalik qaysi?

- A) Massa; B) Kuch; C) Tezlik; D) Bosim;

2. N*m birlik bilan qanday fizik kattalik o'lchanadi?

- A) Mexanik ish; B) Quvvat; C) Bosim; D) Kuch;

3. Kuchni o'lchovchi asbob qaysi?

- A) Tarozi; B) Manometr; C) Barometr; D) Dinamometr;

4. Blez Paskal qonuni ta'rifini ko'rsating?

A) Suyuqlik o'ziga berilgan tashqi bosimini hamma tomonga o'zgartirishsiz uzatadi; B) Suyuqlik va gaz o'ziga berilgan tashqi bosimni hamma tomonga o'zgarishsiz uzatadi; C) Gaz zarralarining idish devorlariga bergan bosimi hamma yo'nalishda bir xil bo'ladi; D) Zarralar bosimni uzatish uchun harakatda bo'lishi kerak;

5.Suyuqlik idish tubiga bergan bosimi nimaga bo'g'liq?

A) Idishning yuziga; B) Suyuqlikning kamligiga; C) Suyuqlik balanligiga; D) Shishi naylarning tuzilishiga;

6.Torrichelli tajribasidan foydalanib tushuntiring. Nima uchun pipetka ichidagi suv to'kilib ketmaydi?

A) Teshik kichik; B) Suv kamligi;
C) Bo'shliq mavjud bo'lgani; D) Atmosfera bosimi tufayli;

7.Arximed qonuni formulasini ko'rsating?

A) $P=p \cdot g \cdot h$; B) $F_A = p \cdot V \cdot g$; C) $F=mg$; D) $P=F/S$;

8.Jism suzayapti. Og'irlik kuchi bilan Arximed kuchi qanday munosabatda?

A) $F_{og'}=F_A=0$; B) $F_{og'} < F_A$; C) $F_A = 0, F_{og'} = 0$; D) $F_{og'} > F_A$;

9.Xalqaro birliklar sistemasida mexanik ish birigi qanday?

A) Sekund; B) Metr; C) Paskal; D) Joul;

10.Normal atmosfera bosimi havoning temperaturasi qancha bo'lgan hol uchun belgilanadi?

A) 20^0 C; B) 10^0 C; C) 0^0 C; D) 36^0 C;

11.Suyuqlik va gazlardagi bosimi o'lchaydigan asbob nomini ayting?

A) Menzurka; B) Tarozi; C) Spidometr; D) Manometr;

12.Jismlarning ish bajara olish qobiliyatini xarakterlovchi kattalik qaysi?

A) Quvvat; B) Energiya; C) Tezlik; D) Kuch;

14.Bajarilgan ishning, shu ishni bajarish uchun ketgan vaqtga nisbati bilan aniqlanadigan fizik kattalik qaysi?

A) Energiya; B) Mexanik ish; C) Quvvat; D) Kuch;

15.10kPa necha Pa teng?

A) 10 Pa; B) 100 Pa; C) 10000 Pa; D) 100000 Pa;

16.Jism yoki jismlar sistemasining massasi to'plangan nuqta nima deyiladi?

A) Sanoq sistemasi; B) Massa markazi; C) Bosim; D) Massa;

17.Quyidagilardan qaysi birining o'lchov birligi asosiy fizik kattalik hisoblanadi?

A) zichlik; B) hajm; C) kuch; D) vaqt;

18.Moddaning birlik hajmiga to'g'ri kelgan massa nima deb ataladi?

A) zichlik; B) tezlik; C) tekis harakat; D) Kuch;

19. Bir jismning ikkinch jismga ta'siri tufayli tezligi yoki shakli o'zgarishiga sabab bo'ladigan kattalik qaysi?

- A) o'lchash; B) kuch; C) fizik kattalik; D) Bosim;

20. Tublari tutashirilgan ikkita vertikal idishlar sxemasiga nima deyiladi?

- A) bosim; B) kuch; C) tutash idishlar;; D) Barometr;

21 Moddaning inertlik va tortishish xossasini ifodalovchi fizik kattalik qaysi?

- A) Massa; B) Kuch; C) Tezlik; D) Bosim;

22. aylanish o'qidan kuch qo'yilgan nuqtagacha bo'lgan eng qisqa masofa...

- A) Kuch momenti; B) Kuch yelkasi; C) Richag; D) chig'iriq;

23. Qo'zg'almas tayanch atrofida aylana oladigan qattiq jism...deyiladi.

- A) Richag; B) Kuch yelkasi; C) Blok; D) Ko'char blok;

24. Zichlik birligi qaysi?

- A) kg/m³; B) kg; C) kg. m³; D) TJY;

25. Yuza birligiga tik ravishda qo'yilgan kuchga to'g'ri keladigan fizik kattalik nima?

- A) Yuza; B) Tezlik; C) Bosim; D) Quvvat;

2-chorak 1- variant javoblari

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
A	A	D	B	C	D	B	B	D	C	D	B	C
14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	
C	C	B	C	A	B	C	A	B	A	C	C	

2- variant

1. Normal atmosfera bosimi havoning temperaturasi qancha bo'lgan hol uchun belgilanadi?

- A) 20⁰ C; B) 10⁰ C; C) 0⁰ C; D) 36⁰ C;

2. Suyuqlik va gazlardagi bosimi o'lchaydigan asbob nomini ayting?

- A) Menzurka; B) Tarozi; C) Spidometr; D) Manometr;

3. 10kPa necha Pa teng?

- A) 10 Pa; B) 100 Pa; C) 10000 Pa;; D) 100000 Pa;

4. Jism yoki jismlar sistemasining massasi to'plangan nuqta nima deyiladi?

- A) Sanoq sistemasi; B) Massa markazi; C) Bosim; D) Massa;

5. Arximed qonuni formulasini ko'rsating?

- A) $P = p \cdot g \cdot h$; B) $F_A = p \cdot V \cdot g$; C) $F = mg$; D) $P = F/S$;

6. Jism suzayapti. Og'irlik kuchi bilan Arximed kuchi qanday munosabatda?

- A) $F_{og'} = F_A = 0$; B) $F_{og'} < F_A$; C) $F_A = 0$ $F_{og'} = 0$; D) $F_{og'} > F_A$;

7.Xalqaro birliklar sistemasida mexanik ish birigi qanday?

- A) Sekund; B) Metr; C) Paskal; D) Joul;

8.Jismlarning ish bajara olish qobiliyatiga..... deyiladi.

- A) Energiya; B) Bosim; C) Mexanikn is;;h D) Kuch;

9.N*m birlik bilan qanday fizik kattalik o'lchanadi?

- A) Mexanik ish; B) Quvvat; C) Bosim ; D) Kuch;

10.Blez Paskal qonuni ta'rifini ko'rsating?

A) Suyuqlik o'ziga berilgan tashqi bosimini hamma tomonga o'zgartirishsiz uzatadi; B) Suyuqlik va gaz o'ziga berilgan tashqi bosimni hamma tomonga o'zgarishsiz uzatadi; C) Gaz zarralarining idish devorlariga bergan bosimi hamma yo'nalishda bir xil bo'ladi; D) Zarralar bosimni uzatish uchun harakatda bo'lishi kerak;

11.Suyuqlik idish tubiga bergan bosimi nimaga bo'g'liq?

- A) Idishning yuziga; B) Suyuqliknng kamligiga;
C)Suyuqlik balanligiga; D)Shishi naylarning tuzilishiga;

12.Torrichelli tajribasidan foydalanib tushuntiring. Nima uchun pipetka ichidagi suv to'kilib ketmaydi?

- A) Teshikkichkina; B) Suvkamligi; C) Bo'shliq mavjud bo'lgani; D) Atmosfera bosimi tufayli;

13.Moddaning inertlik va tortishish xossasini ifodalovchi fizik kattalik qaysi?

- A) Massa; B) Kuch; C) Tezlik; D) Bosim;

